



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar- noyabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(73) 241-97-68*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Mamlakatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar- noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 015,3 mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 208,0 mln AQSH dollariga yoki 11,5 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar - noyabr, mln AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **2 015,3** (+11,5 %)

(2023- y.: **1 807,3**)



Saldo

2024- y.: **-470,7** (2023- y.: **-545,5**)



Eksport

2024- y.: **772,3** (+22,4 %)

(2023- y.: **630,9**)

TSA'dagi ulushi

61,7 %

38,3 %



Import

2024- y.: **1 243,0** (+5,7 %)

(2023- y.: **1 176,4**)











TSAda eksport hajmi 772,3 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 22,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 1 243,0 mln AQSH dollariga (5,7 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 470,7 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar- noyabr, mln AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston Farg'onaning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.











Farg'ona viloyati jahonning 84 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (31,8%), Rossiyada (29,3%), Qozog'istonda (9,0%), Turkiyada (5,5 %) va Qirg'iz Respublikasida (5,1 %) qayd etilgan.





<p>XXR</p> <p>TSA – 641,6</p> <p>Eksport: 42,6 Import: 599,0</p>  31,8%	<p>Rossiya</p> <p>TSA –589,9</p> <p>Eksport: 311,1 Import: 238,7</p>  29,3 %	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 181,9</p> <p>Eksport: 45,1 Import: 136,7</p>  9,0%	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 111,4</p> <p>Eksport: 70,6 Import: 40,8</p>  5,5 %	<p>Qirg'iz Respublikasi</p> <p>TSA – 102,8</p> <p>Eksport: 51,0 Import: 51,8</p>  5,1 %
<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 58,9</p> <p>Eksport: 54,7 Import: 4,2</p>  2,9%	<p>Eron</p> <p>TSA – 38,7</p> <p>Eksport: 34,7 Import: 4,0</p>  1,9 %	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 31,5</p> <p>Eksport: 27,5 Import: 4,0</p>  1,6 %	<p>Italiya</p> <p>TSA – 24,9</p> <p>Eksport: 2,3 Import: 22,6</p>  1,2 %	<p>Belarus</p> <p>TSA – 23,9</p> <p>Eksport: 7,9 Import: 16,0</p>  1,2 %



FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar- noyabr, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 XXR	421,0	550,2	641,6
<i>Eksport</i>	56,1	48,4	42,6
<i>Import</i>	364,9	501,8	599,0
 Rossiya	560,1	463,8	589,9
<i>Eksport</i>	318,9	277,7	351,1
<i>Import</i>	241,2	186,1	238,7
 Qozog'iston	225,6	211,0	181,9
<i>Eksport</i>	26,5	34,8	45,1
<i>Import</i>	199,0	176,2	136,7
 Turkiya	146,9	88,3	111,4
<i>Eksport</i>	84,4	44,5	70,6
<i>Import</i>	62,5	43,8	40,8
 Qirg'iz Respublikasi	106,1	97,1	102,8
<i>Eksport</i>	57,0	38,2	51,0
<i>Import</i>	49,1	58,9	51,8
 Afg'oniston	43,1	48,0	58,9
<i>Eksport</i>	42,9	47,8	54,7
<i>Import</i>	0,2	0,2	4,2
 Eron	25,2	38,4	38,7
<i>Eksport</i>	21,4	34,3	34,6
<i>Import</i>	3,8	4,1	4,1
 Tojikiston	34,4	37,2	31,5
<i>Eksport</i>	23,8	25,9	27,5
<i>Import</i>	10,6	11,2	4,0
 Italiya	13,2	8,5	24,9
<i>Eksport</i>	1,6	0,6	2,3
<i>Import</i>	11,6	7,9	22,6
 Belarus	13,2	22,2	23,9
<i>Eksport</i>	4,0	8,4	7,9
<i>Import</i>	9,2	13,8	16,0

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Turkmaniston	32,1	13,4	23,0
	<i>Eksport</i>	26,9	10,7	15,0
	<i>Import</i>	5,3	2,7	8,0
	Hindiston	32,7	23,5	18,5
	<i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,4
	<i>Import</i>	32,5	23,3	18,1
	Germaniya	23,1	19,6	17,8
	<i>Eksport</i>	4,2	1,2	1,0
	<i>Import</i>	18,9	18,4	16,8
	Polsha	43,5	23,8	17,6
	<i>Eksport</i>	30,3	11,0	13,1
	<i>Import</i>	13,2	12,8	4,6
	Koreya Respublikasi	31,3	23,9	15,1
	<i>Eksport</i>	3,4	0,4	0,6
	<i>Import</i>	27,9	23,5	14,5
	Litva	19,9	34,5	14,6
	<i>Eksport</i>	1,3	13,8	10,0
	<i>Import</i>	18,6	20,7	4,6
	Pokiston	7,6	6,9	10,8
	<i>Eksport</i>	6,8	5,4	7,3
	<i>Import</i>	0,8	1,5	3,4
	BAA	1,2	1,9	9,5
	<i>Eksport</i>	0,8	1,2	6,5
	<i>Import</i>	0,4	0,7	3,0
	Gonkong	17,8	12,5	8,2
	<i>Eksport</i>	0,1	-	0,1
	<i>Import</i>	17,7	12,5	8,1
	Latviya	2,6	5,9	8,0
	<i>Eksport</i>	1,5	4,3	7,7
	<i>Import</i>	1,1	1,6	0,3

FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar - noyabr, mln AQSH doll.)*



Tashqi savdo aylanmasi hajmi eng yuqori bo'lgan hududlar




2023- y.

2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 19,6 % ulush bilan 395,0 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa So'x tumani 0,5 % ulush bilan 10,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar- noyabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 - yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga ko'paydi.

Farg'ona viloyati bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan viloyat eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 52,3 % ni tashkil etdi.

Fargʻona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr holatiga koʻra, 961,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 505,3 mln. AQSH dollariga yetgan boʻlsa, import 456,4 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



FARGʻONA VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

Rossiya – 589,9



Qozogʻiston – 181,8



Qirgʻiz Respublikasi – 102,8



Tojikiston – 31,5



Belarus – 23,9



Turkmaniston – 23,0



Ukraina – 4,0



Ozərbayjon – 3,2



Moldova – 1,1



Armaniston – 0,5



MDHning erkin savdo hududida savdo qilish viloyatning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tasʻir qilmoqda.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (61,3%), Qozogʻiston (18,9%) hamda Qirgʻiz Respublikasi (10,7%) davlatlari bilan qayd etildi.



FARG‘ONA VILOYATI EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 727 taga yetdi va ular tomonidan 772,3 mln AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 22,4% ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)



45,2%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,1%

2. Ichimliklar va tamaki



2,6%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari



0,6%

4. Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar



0,0%

5. Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar



9,3%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar



31,9%

7. Sanoat tovarlari



0,9%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



8,2%

9. Turli xil tayyor buyumlar



1,2%

10. Xizmatlar

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



FARG'ONA VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	630,9	772,3	82,0	122,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	259,0	349,2	103,2	134,8	41,1	45,2
Ichimliklar va tamaki	1,7	1,0	73,9	58,0	0,3	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	23,7	20,4	74,6	86,3	3,8	2,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,0	4,4	28,2	146,5	0,5	0,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	30,7	4,9 m.	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	36,9	71,5	84,4	193,9	5,8	9,3
Sanoat tovarlari	230,9	246,3	65,3	106,6	36,6	31,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	5,6	6,7	73,4	118,8	0,9	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	62,9	63,2	108,2	100,5	10,0	8,2
Xizmatlar	7,0	9,4	67,3	133,4	1,1	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 94,6 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (45,2 %), sanoat tovarlari (31,9 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,3 %) va turli xil tayyor buyumlar (8,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

 XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	349,2	134,8
Sabzavotlar va mevalar	305,1	148,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	40,3	84,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,4	25,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,3	11 b
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,5	104,0
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	0,4	2,9 b
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,2	3,3 b
Ichimliklar va tamaki	1,0	58,0
Ichimliklar	0,9	55,4
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,1	3,3 b
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	20,4	86,3
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	14,6	143,8
Qog'oz massasi va makulatura	2,5	24,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1,2	112,1
Metall rudalari va metall parchalari	0,8	96,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,7	111,4
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	0,6	120,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,4	146,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3,9	139,5
Ko'mir, koks va briketlar	0,5	2,3 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	4,8 b.
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	0,2	4,8 b.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	71,5	193,9
O'g'itlar	57,7	2,1 b.
Noorganik kimyo moddalari	8,8	3,6 b.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2,0	199,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	1,6	88,8
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,0	26,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,2	20,5
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,1	82,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,1	50,9


 XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	246,3	106,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	215,2	104,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	21,1	130,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	4,4	2,1 b.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3,2	140,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	1,7	43,1
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,5	5,4 b.
Cho'yan va po'lat	0,1	3,5 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	6,7	18,8
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	2,2	124,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	2,1	141,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	1,5	76,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	0,7	2,6 b.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,1	3,8 b.
Turli xil tayyor buyumlar	63,2	100,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	50,0	103,5
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6,6	115,2
Poyabzal	3,4	58,7
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	2,0	126,5
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	0,6	98,5
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlar	0,3	109,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	0,3	52,2

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, XXR va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 84,1 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr)






FARG'ONA VILOYATI NING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-noyabr)*

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	277,7	351,1	87,1	126,5	1	1
Turkiya	44,4	70,6	52,7	158,9	4	2
Afg'oniston	47,8	54,7	111,4	114,5	3	3
Qirg'iz Respublikasi	38,2	51,0	67,0	133,5	5	4
Qozog'iston	34,8	45,1	131,3	129,6	6	5
XXR	48,4	42,6	86,3	88,1	2	6
Eron	34,3	34,6	160,4	101,1	7	7
Tojikiston	25,9	27,5	108,9	106,2	8	8
Turkmaniston	10,7	15,0	39,9	139,9	11	9
Polsha	11,0	13,1	36,3	118,5	10	10
Litva	13,8	10,0	10 m.	72,4	9	11
Belarus	8,5	7,9	2,1 m.	93,6	12	12
Latviya	4,3	7,7	2,8 m.	180,7	14	13
Pokiston	5,4	7,3	79,5	135,2	13	14
BAA	1,2	6,5	136,2	5,6 m.	24	15
Misr	0,5	4,0	3,6	751,5	31	16
Ukraina	3,1	3,0	99,8	96,7	15	17
Ozarbajjon	2,1	2,9	148,8	139,8	17	18
Italiya	0,6	2,3	38,6	367,2	29	19
Braziliya	0,0	1,2	113,9	24 m.	44	20

FARG'ONA VILOYATI NING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



2024-yil yanvar-noyabr

2023-yil yanvar-noyabr

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Oltiariq tumani 21,1 % bilan 163,3 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa So'x tumani 0,6 % bilan 4,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida 402,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,8 % yoki 42,4 ming tonnaga ko'paydi.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 304,4 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 49,3 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 39,4 % ni tashkil etdi.












MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>62,8 mln AQSH dollari</p> <p>75,4 ming tonna</p> <p> 2,3 m. ↑</p>	<p>Karam</p> <p>8,8 mln AQSH dollari</p> <p>26,2 ming tonna</p> <p> 80,8 % ↑</p>	<p>Pomidor</p> <p>8,8 mln AQSH dollari</p> <p>9,0 ming tonna</p> <p> -28,0 % ↓</p>	<p>Gilos</p> <p>39,0 mln AQSH dollari</p> <p>19,4 ming tonna</p> <p> 48,9 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>1,6 mln AQSH dollari</p> <p>1,2 ming tonna</p> <p> -70,3 % ↓</p>	<p>O'rik</p> <p>37,9 mln AQSH dollari</p> <p>41,5 ming tonna</p> <p> 84,6 % ↑</p>	<p>Xurmo</p> <p>18,9 mln AQSH dollari</p> <p>28,9 ming tonna</p> <p> 2,5 b. ↑</p>	<p>Olxo'ri quritilgan</p> <p>4,5 mln AQSH dollari</p> <p>2,7 ming tonna</p> <p> -14,3 % ↓</p>
<p>Olxo'ri</p> <p>10,9 mln AQSH dollari</p> <p>14,2 ming tonna</p> <p> 97,5 % ↑</p>	<p>SHAftoli</p> <p>49,8 mln AQSH dollari</p> <p>55,6 ming tonna</p> <p> 58,6 % ↑</p>	<p>Yeryong'oq</p> <p>0,4 mln AQSH dollari</p> <p>0,4 ming tonna</p> <p> -19,6 % ↓</p>	<p>Sabizi</p> <p>4,5 mln AQSH dollari</p> <p>20,7 ming tonna</p> <p> 3,4 b. ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	271,4	228,5	75,1
 Qozog'iston	63,9	29,5	9,7
 Qirg'iz Respublikasi	43,3	25,7	8,4
 XXR	12,0	10,0	3,3
 Belarus	4,0	3,8	1,2
 Ozarbayjon	0,9	1,0	0,3
 Afg'aniston	0,7	0,7	0,2
 Ukraina	1,1	0,6	0,2
 Boshqalar	6,9	6,4	2,3

* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (75,1 %), Qozog'iston (9,7 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (8,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.





TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo‘yicha 264,1 mln AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 434,28 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 4,0 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (63,5 %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (18,7 %) asosiy ulushni egallagan. 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 44 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, % da.



264,1 (2023 y.: 254,0)

Jami




167,6 (161,1)

Ip kalava



49,4 (48,1)

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari



11,7 (13,0)

Trikotaj mato



10,0 (11,2)

Gazlamalar




25,4 (20,6)

Ipak va boshqa turdagi to‘qimachilik mahsulotlari

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi **9,4** mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,2** % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **33,4** % ga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**52,5** %), moliyaviy xizmatlar (**24,0** %), safarlar (turizm) (**17,4**%) va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**6,0** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



FARG'ONA VILOYATI NING IMPORTI

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 1 243,0 mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,7% ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (33,8%), sanoat tovarlari (25,0%) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (15,5%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr)



11,9

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,2%

2. Ichimliklar va tamaki



3,1%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



15,5%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,8%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



5,7%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



25,0%

7. Sanoat tovarlari



33,8%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,8%

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,2%

10. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,0 mln AQSH dollariga ko'paydi va 1 240,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2,2 mln AQSH dollariga yetdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	1 176,4	1 243,0	102,9	105,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	197,6	147,4	122,1	74,6	16,8	11,9
Ichimliklar va tamaki	1,6	2,5	195,7	159,7	0,1	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	39,0	38,4	95,8	98,5	3,3	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	109,2	193,0	63,9	176,7	9,3	15,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	9,8	9,6	143,5	97,5	0,8	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	91,5	70,4	143,5	76,9	7,8	5,7
Sanoat tovarlari	263,7	311,3	100,5	118,1	22,4	25,0
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	423,6	420,6	106,7	99,3	36,0	33,8
Turli xil tayyor buyumlar	37,9	47,6	104,2	125,6	3,2	3,8
Xizmatlar	2,7	2,2	97,8	83,0	0,2	0,2

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)


 XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	147,4	74,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	86,2	62,4
Sabzavotlar va mevalar	30,6	168,3
Tirik hayvonlar	7,9	42,1
Go'sht va go'sht mahsulotlari	6,6	2,1 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	6,2	65,8
Hayvonlar uchun ozuqalar	4,1	80,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2,9	121,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,4	125,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1,3	140,1
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyus-kalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	0,2	48,0
Ichimliklar va tamaki	2,5	159,7
Ichimliklar	2,5	159,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	38,4	98,5
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	14,9	140,6
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	3,6	2,1 b.
Probka va yog'och-taxtalar	17,7	91,2
Tabiiy kauchuk	0,9	67,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,6	66,2
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	0,5	13,2
Qog'oz massasi va makulatura	0,2	45,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	193,0	176,7
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	138,7	178,2
Ko'mir, koks va briketlar	41,5	133,1
Tabiiy yoki sun'iy gaz	12,8	51 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	9,6	97,5
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	9,5	97,9
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	45,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	70,4	76,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13,7	70,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	11,4	66,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	10,8	88,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	10,3	96,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	9,7	179,2
Noorganik kimyo moddalari	6,4	72,1
Organik kimyo moddalari	5,6	72,3
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	2,4	
O'g'itlar	0,1	

	XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		311,3	118,1
Cho'yan va po'lat		142,7	163,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar		41,2	73,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan		41,1	137,6
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)		27,5	134,2
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar		22,3	98,7
Rezina buyumlari		18,9	80,2
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar		9,9	72,6
Rangli metallar		7,6	74,3
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna		0,1	69,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		420,6	99,3
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari		127,8	2,9 b.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar		96,2	58,7
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:		82,4	77,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari		76,2	105,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari		16,9	177,6
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar		12,1	106,7
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar		5,5	96,7
Metallarni qayta ishlash mashinalari		3,5	53,6
Boshqa transport uskunolari		0,0	21,7
Turli xil tayyor buyumlar		47,6	125,6
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar		18,4	127,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari		13,8	141,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari		8,7	137,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel		2,4	199,6
Poyabzal		1,7	102,9
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar		1,6	55,2
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari		0,8	67,2
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar		0,2	61,0

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 36,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida Farg'ona viloyati 66 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Turkiya, Italiya va Hindiston) jami importning 89,1% ulushini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr)






FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	501,8	599,0	137,5	119,4	1	1
Rossiya	186,1	238,7	77,2	128,3	2	2
Qozog'iston	176,2	136,7	88,5	77,6	3	3
Qirg'iz Respublikasi	58,9	51,8	120,2	87,8	4	4
Turkiya	43,8	40,8	70,1	93,0	5	5
Italiya	7,9	22,6	68,1	2,9 m.	15	6
Hindiston	23,3	18,1	71,6	77,8	7	7
Germaniya	18,4	16,8	97,2	91,5	9	8
Belarus	13,8	16,0	149,6	116,1	10	9
Koreya Respublikasi	23,5	14,5	84,2	61,8	6	10
Gonkong	12,5	8,2	70,5	65,5	12	11
Turkmaniston	2,7	8,0	50,5	3,0 m.	23	12
Litva	20,8	4,6	111,8	22,2	8	13
Polsha	12,8	4,6	97,2	35,8	11	14
Yaponiya	1,4	4,5	10,4	3,1 m.	30	15
Chehiya	4,7	4,3	159,1	91,2	17	16
Afg'oniston	0,3	4,2	146,5	14 m.	45	17
Shveysariya	9,7	4,0	159,9	41,7	14	18
Eron	4,1	4,0	108,6	97,2	18	19
Tojikiston	11,2	4,0	105,6	35,2	13	20

FARG'ONA VILOYATI NING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



2024-yil yanvar-noyabr


2023-yil yanvar-noyabr

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 23,2 % bilan 288,3 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bag'dod tumani 0,4 % bilan 5,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 311,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,1 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 25,0 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)

214,6 mln AQSH doll.
Ulushi – 68,9 %

38,5 mln AQSH doll.
Ulushi – 12,4 %

12,1 mln AQSH doll.
Ulushi – 3,9 %



XXR



Rossiya



Qozog'iston

11,2 mln AQSH doll.
Ulushi – 3,6 %

8,7 mln AQSH doll.
Ulushi – 2,8 %



Belarus



Turkiya

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (142,8 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (41,1 mln AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (41,2 mln AQSH dollari), rezina buyumlari (18,9 mln AQSH dollari), probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (27,6 mln AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

OZIQ OVQAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida oziq-ovqat tovarlari hajmi 147,4 million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,4 %ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 11,9 %ga yetdi.

OZIQ OVQAT MAHSULOTLARINI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)



Qozog'iston

96,6 mln. AQSh dollari
ulushi – 65,6 %



Qirg'iz Respublikasi

18,2 mln. AQSh dollari
ulushi – 12,3 %



XXR

10,2 mln. AQSh dollari
ulushi – 7,0 %



Rossiya Federatsiyasi

7,4 mln. AQSh dollari
ulushi – 5,0 %



Oziq ovqat importi asosan donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (86,2 mln. AQSh dollari), meva va sabzavotlar (8,9 mln. AQSh dollari), tirik hayvonlar (30,6 mln. AQSh dollari), tirik hayvonlar (7,9 mln. AQSh dollari), hayvonlar uchun ozuqa (4,1 mln. AQSh dollari), go'sht va go'sht mahsulotlari (6,6 mln. AQSh dollari), shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal (2,9 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.